

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

**Saparova Umida Baxromovna**

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti o'qituvchisi*

**Adashboyeva Parvina Jahongir qizi**

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti talabasi*

**Annotasiya:** *Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi.*

**Kalit so'z:** *Ta'lim, kompetensiya, o'quvchi, figuralar, boshlang'ich sinf, matematika, arifmetik amallar,*

### KIRISH

Respublikamizda xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta'lim uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora – tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarni o'zlashtirilgan axborotlarni o'quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo'llay olishga tayyorlashi bilan xarakterlanadi. Maktab ta'limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirib fanlardan elektron ta'lim resurslarini takomillashtirish, o'quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqatini ta'minlash, mustaqil ta'limni amalga oshirish va o'z-o'zini baholash, zaruriy ma'lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan qiyin muammolarning yechimini hal eta olishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Asosiy qism. O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiyalar; umumiy (predmetli) kompetensiyalar; xususiy kompetensiyalar. O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin yaratadigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Kompetensiya so'ziga turlicha ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Xususan, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" da

kompetensiya so'zi quyidagicha izohlanadi: kompetensiya (lot. Compete – erishyapman, munosibman, loyiqman) – muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. 2-sinf dan boshlab  $(x+6)-3=2$  ko'rinishdagi tenglamalar qaraladi. Tenglamalarni yechish, oldin tanlash metodi bilan, so'ngra amallarning natijalari bilan komponentlari orasidagi bog'lanishlarni bilganlik asosida bajariladi.

O'zgaruvchi bilan amaliy tekshirish o'quvchilarning funksional tasavvurlarini egallashlariga imkon beradi. Geometrik material bolalarning eng sodda geometrik figuralar bilan tanishtirish, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, shuningdek, arifmetik qonuniyatlarni, bog'lanishlarni ko'rsatmali maqsadlariga xizmat qiladi.

O'quvchilar geometrik figuralarni tasavvur qila olishi, ularni nomlari, katakli qog'ozda sodda va oson chiza olishni o'rganib olishlari kerak. Bundan tashqari, ular kesma va siniq chiziq uzunligini, ko'pburchak perimetrini, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat va umuman har qanday figuraning yuzini topish malakasini egallab olishlari lozim. Boshlang'ich sinflarda matematika o'z tuzilishi bo'yicha o'z ichiga olgan, arifmetik, algebraik va geometrik materialdan iborat qismlarni. Boshlang'ich matematika kursida arifmetik materialning konsentrik joylashuvi saqlanadi. Amaldagi dasturda konsentrlar soni kamaytirilgan: o'nlik, yuzlik, minglik, ko'p xonali sonlar. Shuni ham aytish kerak, material shunday katta guruhlashganki, unda o'zaro bog'langan tushunchalar, amallar, masalalarni qarash vaqt jihatdan yaqinlashtirilgan.

Arifmetik amallarning xossalari va mos hisoblash usullarini o'rganish bilan bir vaqtda arifmetik amallar natijalari bilan komponentalari orasidagi bog'lanishlar ochib beriladi. (Masalan, agar yig'indidan qo'shiluvchilardan biri ayrilsa, ikkinchi qo'shiluvchi hosil bo'ladi.) Komponentlaridan birining o'zgarishi bilan arifmetik amallar natijalarining o'zgarishi kuzatiladi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi. Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va tafakkurini kengaytiradi. Darslar tizimining tuzilishidagi eng katta talab darsning o'quv-tarbiyaviy maqsadini e'tiborga olish, o'qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir.

Mavzu bo'yicha yaxshi o'ylangan darslar tizimining o'quv vaqtini mavzuchalarga to'g'ri taqsimlashga bog'liq.

Dars quyidagi asosiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin: Aralash dars rejasini keltiramiz.

I. Tashkiliy qism. Maqsad: ish vaziyatini yaratish (1-1,5 min)

II. Uy vazifasini tekshirish: so'rash, didaktik material bilan ishlash, aralash so'rash (7 - 10 min)

III. Yangi bilimlar berish, yangi materialni tahlil etish (suhbat, darslik va daftar bilan mustaqil ishlash) (15 - 20 min)

IV. Yangi materialni mustahkamlash, ilgari o'tilgan materialni takrorlash, mashqlar, didaktik o'yinlarning elementlari. (5-15 min.)

V. Uy vazifasi, uning mohiyati bajarilish uslubi, amaliyot bilan aloqasi fanlararo aloqadorligi. (5 min)

VI. Darsning yakunlanishi. (2 min).

Uy vazifasini tekshirish darsning majburiy bosqichidir. Yangi bilimlar berish.

Darsning bu bosqichi maktab o'quvchilarida bilim va o'quv malakalarni shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq. Mazkur bosqich ayrim qismlarga ajraladi:

a) yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik;

b) maqsadni belgilash (muammoli vaziyat yaratish);

d) yangi materialni o'rganish;

e) qoidalar yoki qilinadigan ishlar algoritmini mashq qilish. Og'zaki sanoqdayoq yangi bilimlarni qabul qilishga tayyorlash maqsadida o'qituvchi shunday savollarni kiritadiki, ularga beriladigan javoblar ularni yangi bilimlar bilan bog'lash hamda bilim va uquvlar umumiy tizimiga kiritilishiga yordam beradi.

Yangi mavzuni yangi materialni tushuntirishdan oldin aytish, va aksincha, bu ishni o'quvchilarni yangi hisoblash usullari, xossasi va hokazo bilan tanishtirilgandan so'ng yakun, tushuntirish xulosasi sifatida ham amalga oshirish mumkin.

Yangi mavzu so'rash orqali tekshiriladi. So'ngra qisqacha so'zlash, nazariy bilimlarning chuqurlashuviga ham yordam beradi.

Masalan, 1 sinfda bolalar "36-2 va 36-20 ko'rinishidagi ayirish" mavzusida yangi ayirish usuli bilan tanishdi. Mustahkamlash uchun ular uyda ushbu misollarni yechadi:

69 - 3 98 - 6

69 - 30 98 - 60

Miqdorlarni taqqoslash haqidagi ilgari o'rgangan bilimlarini mustahkamlash uchun bunday topshiriqni bajaradi:

2 dm > 18 sm 1 so'm > 80 tiyin

6 sm < 2 dm 60 tiyin > 50 tiyin

Amaliyotning ko'rsatishicha, uy vazifasi odatda sinfda bajarilgan ish hajmining yarmini tashkil etadi.

Darsni yakunlash. O'qituvchi darsni yakunlaydi: "Darsda nima bilan shug'ullandik? Darsda qanday yangi narsani bilib oldik?" o'quvchilar bilan birgalikda yangi qoida takrorlanadi.

Dars mazmunini aniqlash uchun o'qituvchi quyidagi talablarga rioya qilishi lozim:

1. Dars mazmuni dasturga mos kelishi va uning maqsadlaridan kelib chiqishi.

2. G'oyaviylik va e'tiqodni tarbiyalash. Darsda o'quvchilar dunyoqarashlarini kundalik axloq asoslari sifatida shakllantirish uchun eng qulay, yaxshi sharoit yaratish zarur.

3. Darsni turmush bilan, o'quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bog'liqligi.

4. O'quv materialning o'quvchilarga tushunarli va ularning kuchlari yetadigan bo'lishi. Dars mazmuniga har xil masalalar, mashqlar kiradi. O'qituvchi bularni almashtirishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki hozirda o'quvchilarini kompetensiyaviy bilmini oshirish kelajakda katta yutuqlarga erishishda matematika albatta kerak. O'quv daturlarini bolaning yoshiga moslab ishlab chiqarish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Adolat, 2016-yil. – 8-dekabr
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida – LEX.UZ
3. Маҳмудов А.Х. Узлуксиз таълим жараёнига компетентлик ёндошувини жорий қилишнинг дидактик асослари // Узлуксиз таълим. – 2012. – № 4. 8-12 бетлар.
4. Турғунов С.Т., Даниёров Б.Х. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш жараёнлариги тизимли ёндашув // Халқ таълими. – 2011. – № 5. 71-76 бетлар.
5. . <http://www.dissers.info>
6. . [http://www.austms.org.au/publ/jaustMs\\_writing.pdf](http://www.austms.org.au/publ/jaustMs_writing.pdf)
7. . <http://www.bigpi.biysk.ru/wwwsite/source>.
8. . [http://www.ippd.univers.krasu.ru/bibl/pedagog\\_razvitie](http://www.ippd.univers.krasu.ru/bibl/pedagog_razvitie).